

Maxmudov Dilshod Abdixalil o'g'li
Shahrisbaz davlat pedagogika instituti
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA O'ZBEKISTON BILAN XALQARO TASHKILOTLAR O'RTASIDA HAMKORLIK ALOQALARI (YEVROPA ITTIFOQI, YEXHT, SHHT MISOLIDA)

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik munosabatlari tahlil qilingan. Xususan, YEXHTning 1996 yilgi Lissabon uchrashuvi, O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi "Sheriklik va Hamkorlik" to'g'risidagi bitim hamda Shanhay hamkorlik tashkiloti (SHHT) doirasidagi faoliyatning mazmun va ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: YEXHT, NATO, SHHT, hamkorlik, xavfsizlik, inson huquqlari, tashqi siyosat.

ОСОБЕННОСТИ СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН С МЕЖДУНАРОДНЫМИ ОРГАНИЗАЦИЯМИ В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ЕВРОПЕЙСКОГО СОЮЗА, ОРГАНИЗАЦИИ ПО БЕЗОПАСНОСТИ И СОТРУДНИЧЕСТВУ В ЕВРОПЕ И ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА)

Аннотация. В данной статье проведён анализ сотрудничества Республики Узбекистан с международными организациями. В частности, рассмотрены итоги Лиссабонского саммита ОБСЕ 1996 года, содержание и значение Соглашения о партнёрстве и сотрудничестве между Узбекистаном и Европейским Союзом, а также деятельность в рамках Шанхайской организации сотрудничества (ШОС).

Ключевые слова: ОБСЕ, НАТО, ШОС, сотрудничество, безопасность, права человека, внешняя политика.

FEATURES OF THE COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL ORGANIZATIONS IN THE EARLY YEARS OF INDEPENDENCE (BASED ON THE CASES OF THE EUROPEAN UNION, THE ORGANIZATION FOR SECURITY AND CO-OPERATION IN EUROPE, AND THE SHANGHAI COOPERATION ORGANIZATION)

Annotation. This article analyzes the cooperation between the Republic of Uzbekistan and international organizations. In particular, it highlights the outcomes of the 1996 Lisbon Summit of the OSCE, the content and significance of the Partnership and Cooperation Agreement between Uzbekistan and the European Union, as well as the activities within the framework of the Shanghai Cooperation Organization (SCO).

Keywords: OSCE, NATO, SCO, cooperation, security, human rights, foreign policy.

O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri xalqaro tashkilotlar bilan keng qamrovli hamkorlikni rivojlantirishdan iboratdir. Mustaqillikka erishgandan keyin mamlakat demokratik taraqqiyot, xavfsizlikni ta'minlash va inson huquqlarini himoya qilish sohalarida xalqaro hamjamiyat o'zini o'rnin topish maqsadida, Dunyo mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yishi va tobora chuqurlashtirishi alohida o'rin tutadi. 1996-yil 26-iyunda Florensiya shahrida imzolangan O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi "Sheriklik va Hamkorlik" to'g'risidagi bitim, uning 1999-yil 1-iyuldan e'tiboran kuchga kirishi mamlakatimizning Yevropa Ittifoqi

34 mamlakatlari bilan o'zaro munosabatlarining huquqiy negiziga aylandi. O'tgan davr mobaynida respublikamizda Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarning 145 firma va kompaniyasi vakolatxonalari akkreditatsiya qilingan. Shuningdek, respublikamizda yevropalik sarmoyadorlar ishtirokida tashkil etilgan 583 ta korxona faoliyat olib boryapti, ulardan 111 tasi yuz foizlik Yevropa kapitaliga ega. Bundan tashqari EI mamlakatlarining 204 ta kompaniyalari vakillik idoralari O'zbekistonda faoliyat olib bormoqda.

O'zbekistonning tashabbusi bilan 1996-yil 11-13-sentabr kunlari Toshkentda "EXHT ning Demokratik muassasalar va inson huquqlari bo'yicha milliy muassasalar" mavzusidagi xalqaro seminar kengashi bo'lib o'tdi. Unda O'rta Osiyo, Yevropa, Amerikadagi 21 mamlakat ekspertlarining, shuningdek, 29 ta xalqaro va nohukumat tashkilotlarining vakillari ishtirok etdilar. Seminar kengashida Markaziy va Sharqiy Yevropada Ombudsman instituti, inson huquqlari bo'yicha milliy muassasalar faoliyatini rivojlantirish, qonunchilik tizimini takomillashtirish, xalq ta'limi va ommaviy axborot vositalarining inson huquqlari sohasidagi roli masalalari ko'rib chiqildi [1].

Davlatimizning tinchliksevar va do'stona tashqi siyosati xalqaro miqyosda e'tirof etilayotganini 1992-yil 30-yanvarida Praga shahrida EXHT tashqi ishlar vazirlarining yig'ilishida O'zbekiston Respublikasini ushbu tashkilotga a'zolikka qabul qilganligida yaqqol ko'rish mumkin [2].

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT) Kengashining 1992-yil 10-iyulida bo'lgan majlisida Birinchi Prezident I.Karimovning raislik qilganligi esa O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin olayotganini ko'rsatib beradi. Birinchi Prezident I.A. Karimov EXHTning Xelsinki (1992 -yil), Budapesht (1994 -yil), Lissabon (1996 -yil), Istanbul (1999 -yil) sammitida qatnashdi va nutqlarida qator taklif va tashabbuslarni olg'a surdi Birinchi Prezident dunyoda tinchlik barqarorlikni ta'minlashda EXHTning o'rni haqida so'zlab, Budapesht minbarida "Bizningcha, mojarolar bo'layotgan joylardagi barcha tinchlikparvarlik ishlari faqatgina EXHTning mandati bo'yicha amalga oshirilmog'i kerak. Nazarimizda davlatlarning umumiy qirg'in qurolini tarqatmaslik va aytgan bo'lardimki, bu qurollarning sayyoramiz bo'ylab yo-yilishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan olgan majburiyatlarga qat'iy rioya etishga e'tiborini kuchaytirish zarur..."[3] deb ta'kidlagan edi.

O'zbekiston tashabbusi bilan 1996-yil 3-4-dekabrda EXHT davlat va hukumat boshliqlarining Lissabon deklaratsiyasiga Markaziy Osiyo Mintaqasida barqarorlikni qo'llab-quvvatlash hamda mojarolarni oldini olishga qaratilgan sa'y-harakatlarni faollashtirish haqida band kiritildi. Jumladan, Deklaratsiyada shunday deyiladi: "Biz EXHTda Maraziy Osiyo davlatlarining muhim rol o'ynashini ta'kidlaymiz. Biz EXHTning bu mintaqada demokratik tuzilmalarni rivojlantirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash, barqarorlikni qo'llab-quvvatlash va nizolarni oldini olishga qaratilgan sa'y-harakatini faollashtirish maqsadidamiz" [4].

EXHTning Toshkentdagi muvofiqlashtiruvchisi Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining muhim hamkorlaridan biri hisoblanadi. Ushbu markaz bilan hamkorlikda bir nechta seminar va konferensiyalar tashkil etilib, 2007-yil 29-31-mart kunlari Xofburgda (Vena shahri)da, 2007 -yil oktyabrda Madridda inson huquqlari, demokratik jamiyatlarda samarali ishtirok etish va vakillik qilish kabi sohalarda erishilgan yutuqlar, erishilgan tajribalar doirasida fikr mulohazalar almashildi [5].

2004-yil 1-noyabrda O'zbekistonga Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti amaldagi raisining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili Marti Axtisaarning tashrifi bo'ldi [6].

O'zbekiston va EXHT o'zaro hamkorlikda chegaralar xavfsizligini ta'minlash, qurol-yarog' savdosiga qarshi kurashish, terrorchilik va uni moliyalashtirishning oldini olish masalalariga alohida e'tibor berib kelinmoqda [7].

1992-yil sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Butun jahon bankining to'la huquqli a'zosi sifatida qabul qilindi [8]. Toshkentda bankning vakolatxonasi faoliyat yuritmoqda. Butunjahon bankiga a'zolikka qabul qilingan vaqtdanoq, Rivojlanish va rekonstruksiya xalqaro banki va Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi mamlakatda amalga oshirilishi lozim bo'lgan 16 ta loyihani 717 mln. AQSH dollari miqdoridagi mablag' bilan moliyalashtirdi.

O'zbekiston Respublikasi 1995-yil yirik moliyaviy tashkilot Osiyo rivojlanish banki (ORB) a'zosi bo'ldi. Shu kundanoq 1,1 mlrd. AQSH doll. zaym hisobida, 35,5 mln. AQSH doll. texnik yordam ko'rsatishga ajratildi. Bankning Toshkentdagi vakolatxonasi 1997-yildan faoliyat boshlagan. Ushbu yirik xalqaro moliyaviy tashkilot bilan quyidagi yo'nalishlarda, xususan, qishloq xo'jaligi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, bojxona va transport tizimi, ta'lim tizimi hamda ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish kabi sohalarda hamkorlik aloqalarini amalga oshirmoqda.

Yirik xalqaro tashkilotlardan biri NATO bilan 1994-yil 13-iyuldan buyon ikki va ko'p tomonlama hamkorlik aloqalari amalga oshirib kelinmoqda [9]. Jumladan, "Tinchlik yo'lida hamkorlik" dasturi va 1996-yildan har yili alohida ishlab chiqilayotgan dastur doirasida quyidagi asosiy yo'nalishlar: harbiy mutaxassislar malakasini oshirish, mudofaa siyosati, terrorizmga qarshi kurash hamda fan-texnika sohasidagi hamkorlik aloqalarini amalga oshirib kelmoqda.

"Hozir bizning mamlakatimiz bilan NATOdek xalqaro tashkilot o'rtasida o'zaro tushunish va hamkorlik mavjud deb aytish mumkin" [10]. 2002-yil 13-14-iyun kunlari poytaxtimizda NATO Ilmiy qo'mitasining ko'chma yig'ilishi va Markaziy Osiyo mintaqaviy ilmiy-texnikaviy muammolarga bag'ishlangan ilmiy seminar bo'lib o'tdi [11]. Tadbir O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etilgan Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot bo'yicha muvofiqlashtirish kengashi huzuridagi Fan va texnologiyalar markazi hamda NATOning Ilmiy qo'mitasi hamkorligida tashkil etildi. NATO Ilmiy qo'mitasi bilan O'zbekiston o'rtasidagi ilmiy-texnikaviy hamkorlik 1995 -yil o'rnatilgan. Shu davr ichida turli mavzudagi seminarlar, kimyo, fizika, tibbiyot, biologiya sohalar bo'yicha qator ilmiy loyihalar amalga oshirildi. O'zbekiston olimlari NATO Ilmiy qo'mitasi tomonidan o'tkaziladigan ilmiy anjumanlarda muntazam ishtirok etib kelmoqda [12].

2004-yil 20-oktabr kuni NATO bosh kotibi Yaap de Xoop Sxeferning O'zbekistonga tashrifi bo'ldi. Oqsaroydagi qabul vaqtida Birinchi Prezident I.A. Karimov mehmonni ushbu tashkilotga rahbar bo'lgani bilan qutlar ekan, O'zbekistonning NATO bilan hamkorligi muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi [13]. Ushbu tashkilot bilan O'zbekiston o'rtasida qator loyihalar amalga oshirildi. Shulardan biri Orol va Orol bo'yi aholisiga yordam ko'rsatishga bag'ishlangan. Unda Qoraqalpog'iston hududida ichimlik suvi muammosini hal qilish bosh masala bo'ldi. Bu sohada ushbu tashkilot mutaxassislari o'zbek hamkasblari bilan uzviy hamkorlik qilmoqdalar.

Mintaqada tashkil etilgan va hozirda o'zining keng ko'lamli samarasini berayotgan Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) bilan ham yaqin aloqalar yo'lga qo'yilgan. 2001-yil 14-15-iyunida bo'lib o'tgan Xitoydagi SHanxay sammitida Birinchi Prezident I.A. Karimov qatnashdi va O'zbekistonning "SHanxay forumi" ga to'la huquqli a'zo bo'lishi to'g'risida bayonotni imzoladilar [14]. O'zbekiston uning asoschilaridan biri bo'ldi. Yevroosiyoda ulkan xavfsizlik va hamkorlik zonasini vujudga keltirishga qaratilgan mazkur uyushmaga a'zo bo'lishdan O'zbekiston ham manfaatdordir. Bu ulkan hududda siyosiy va iqtisodiy qudrati, fan-texnika va yuqori texnologiya sohasidagi yutuqlari, qolaversa, harbiy salohiyati bilan ajralib turuvchi, BMT xavfsizlik kengashining doimiy a'zolari hisoblangan Rossiya va Xitoyning hududiy joylashganligi muhim ahamiyat kasb etadi [15]. O'zbekistonning SHHTga a'zolikdan maqsadi vatanimizning xavfsizligini va barqaror rivojlanishini mustahkamlashdir.

2004-yil 17-iyun kuni Toshkentda SHHT ga a'zo davlatlar rahbarlarining sammiti bo'lib o'tdi [16]. Unda ikki asosiy masala – xavfsizlik va savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha muzokaralar bo'ldi. Butun dunyoda terrorchilikni kuchayib, yadroviy, kimyoviy, biologik, elektron terrorchilikni moliyalashtiradigan markazlarga qarshi keskin kurash olib borish zarurligi ta'kidlandi. Shu boisdan Toshkentda tashkil etilgan MATT [17] zimmasiga axborot almashish, chegara va bojxona qo'mitalarining maxsus xizmatlarning hamkorligini muvofiqlashtirish, shu orqali terrorizmning oldini olish vazifasi yuklatilgan.

O'zbekiston Markaziy Osiyo hududidan o'tadigan hamda SHHT a'zo – davlatlarining MDH, EI, Janubiy va Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish va mustahkamlashga xizmat qiladigan transport kommunikatsiya loyihalari, yo'lak va marshrutlarni amalga oshirishga qaratilgan g'oya va takliflarni qo'llab-quvvatlaydi. A'zo –

davlatlar boshliqlari Kengashining 2005-yil Qozog'iston poytaxti Ostonada bo'lib o'tgan sammitida qatnashchilar tashkilotning kelajak faoliyati yo'lidagi umumiy harakatlarni o'zida birlashtirgan yangi me'yoriy hujjat – SHHT Deklaratsiyasini qabul qilishdi. 2006-yil 14–15-iyun kunlari Shanxay shahrida SHHT davlat boshliqlari Kengashining oltinchi sammiti bo'lib o'tdi. Mazkur sammit yakunida SHHT faoliyatining besh yillik natijalari to'g'risidagi Deklaratsiya, SHHT a'zo – davlatlar boshliqlari Kengashining xalqaro axborot xavfsizligi to'g'risidagi qarori va terrorizm, ekstremizm va ayirmachilikka qarshi kurash, iqtisodiyot hamda ta'lim sohalaridagi hamkorlik borasida hujjatlar qabul qilindi. Shuningdek, a'zo – davlatlar o'rtasida birgalikdagi aksilterroristik harakatlar o'tkazish va xavfsizlikni mustahkamlash to'g'risida bir qator kelishuvlar ham imzolandi. O'zbekiston Respublikasi 2010-yil davomida SHHTga raislik davrida ulkan ishlarni amalga oshirilib, katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Xususan, BMT Bosh kotibi Pan Gi Munning 2010-yil aprel oyida mamlakatimizga tashrifi amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ayniqsa BMT va SHHT kotibiyatlari o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi Qo'shma deklaratsiya imzolanishi ulkan tarixiy voqealik bo'ldi. Bu tarixiy hujjatning imzolanishi, albatta, SHHT va unga a'zo davlatlar oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda BMT minbaridan yanada faolroq foydalanish, shu bilan birga mavjud global muammolarni bahamjihat hal etilishi imkonini beradi.

Xulosa qilib takidlanganda O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi milliy xavfsizlikni ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish va demokratik qadriyatlarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. YEXHT, NATO va SHHT bilan munosabatlar mamlakatning tashqi siyosiy faoliyatida pragmatik, ochiq va muvozanatli yo'nalishni ta'minlab berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Янги Ўзбекистоннинг етти зафарли йили. – Т.: Шарқ. 1998. – Б.193.
2. ЦГА РУз. Республика Узбекистан членство в международных организациях. Ф. М-2. оп.-1. д-169. л-38
3. Каримов И.А. Биздан озод ва обод ватан қолсин. – Т.: Ўзбекистон, 1996, – Б.157.
4. ЕХХТ Олий даражадаги Лиссабон учрашуви. 1996 йилги Лиссабон ҳужжатлари // Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар (тўплам). Мухаррир А. Саидов. – Т.: Адолат, 2004. – Б. 451-480.
5. Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. 2008. №1. – Б. 25.
6. Ўзбекистон овози. 2004 йил 2 ноябрь.
7. Вестник. ОБСЕ. Том IX, № 10 ноябрь 2002. – С. 27-28.
8. МИД РУз // официальный сайт: Сотрудничество Республики Узбекистан с международными организациями. <http://www.mfa.uz>.
9. МИД РУз // официальный сайт: О сотрудничестве Узбекистана с НАТО в рамках СЕАП / ПВМ. <http://www.mfa.uz>
10. Каримов И. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт қафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 306.
11. Ўзбекистон – НАТО: илмий ҳамкорлик ривожланмоқда // Ўзбекистон овози. 2002 йил 6 июнь.
12. Мараджапова Ф.Э. Участие Узбекистана в программе НАТО “Партнёрство во имя мира” // Ўзбекистон жаҳон ҳамжамияти тизмида. Ўзбекистон жаҳон ҳамжамияти тизмида. Республика илмий – назарий анжуманининг илмий тўплами. Т., 2004 – Б. 287.
13. Оксаройда қабул // Ўзбекистон овози. 2004 йил 21 октябрь.
14. Каримов. И.А. ШХТ га аъзо давлат раҳбарларининг 2001 йил 6-7 июндаги саммитида сўзлаган нутқи. Халқ сўзи. 2001 йил 20 июнь.
15. Олламов Я. Абдуллаев О. Ўзбекистон ва Шанхай ҳамкорлик ташкилоти // Ўзбекистон жаҳон ҳамжамияти тизмида // Республика илмий – назарий анжуманининг илмий тўплами. – Т., 2005. – Б. 251-252.
16. Ташкентский саммит в развитии сотрудничества // Экономическое обозрение. Т., 2004. № 6. – С. 23-27.
17. МАТТ – Минтақавий аксилтеррористик тузилмаси, 2004 йил ташкил этилган. Ушбу ваколатли тузилманинг штабс- квартираси Тошкент шаҳрида жойлашган.